“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Maktabgacha ta’lim tizimida korrupsiyani oldini olish: muammo va yechimlar

Hilola Madumarova,
Namangan shahar prokurori yordamchisi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti
e-mail: khilolamadumarova@gmail.com

Аннотация. mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimi, tizimdagi korrupsion muammolar, korrupsiyaviy holatlarni oldini olishda olib borilayotgan tashkiliy choralar tahlili, ularning natijalari va korrupsiyani oldini olish bo‘yicha tavsiyalar to‘g‘risida so‘z boradi.

Калит сўзлар. maktabgacha ta’lim tizimi, tashkiliy choralar, korrupsion muammolar, korrupsiyani oldini olish.

Аннотация. в данной статье рассматриваются понятие системы дошкольного образования, а также принимаемые меры по предупреждению коррупции, последствия принятых мер и даются рекомендации по борьбе с коррупцией.

Ключевые слова. дошкольное образование, меры, коррупция, предупреждение коррупции.

Annotation. this article studiesthe concept of thepreschool education system and analyzes the activities as well as measures taken to prevent corruption, reviews the consequences of the measures and gives recommendations for combating with corruption in the prosecutor`s office.

Keywords. preschool education system, measures, corruption issues, prevention of corruption.

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi xavfli omil, barcha mamlakatlarga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hodisadir. Zepo, bu omil tufayli davlatning rivojlanishi sekinlashadi, hukumat tizimi ishdan chiqadi, demokratik institutlarga putur yetadi. U saylov jarayonlariga salbiy ta’sir qilib, qonun ustuvorligiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu bilan birga, uning ta’siri ostida fuqarolarning ijtimoiy adolatga, haqiqatga va davlat organlariga ishonchi yo‘qoladi. Har qanday jamiyat uchun

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ushbu jinoyatga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biridir. Bugun katta-yu kichik, boy va kambag‘al, qudratli va kuchsiz bironta davlatni korrupsiyadan holi hudud, deb aytolmaymiz. BMT va Xalqaro valyuta jamg‘armasining ma’lumotlariga ko‘ra, jahon iqtisodiyoti bu ofat tufayli yiliga 1.5-2.6 trillion dollargacha zarar ko‘rmoqda. Shu bois ham, jahon hamjamiyati bu illatga qarshi keskin kurashmoqda.

Zero, Shavkat Mirziyoyev 2020 yilning 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek:

“Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmogi rivojlanmaydi”.

Korrupsiya — lotincha “cor” va “ruptum” so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “cor” – vijdon, yurak; “ruptum” esa buzilish, vayron bo‘lish demakdir. Ya’ni korrupsiya insonning vijdonan va ahloqan buzilishi hisoblanadi. Shuningdek, ko‘plab ilmiy adabiyotlarda korrupsiya lotincha “corruptio” so‘zidan olinganligi keltirilgan bo‘lib, pora berib sotib olish, buzilish, ishdan chiqish, axloqiy (ma’naviy) buzilish degan ma’nolarni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” qonunining 3-moddasida korrupsiya quyidagicha ta’riflanadi:

“Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy nafo olish maqsadida qonunga xilo‘f ravishda foydalanishi, shuningdek bunday nafni qonunga xilo‘f ravishda taqdim etishi.”

Demak, korrupsiyaviy holatlar shaxslar moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida o‘z mansab yoki xizmat mavqeilaridan noqonuniy foydalanib, shaxsiy yoki boshqalar manfaatlarini ko‘zlab harakat yoki harakatsizlik qilganda vujudga keladi. Respublikamizda ushbu jinoyatga qarshi kurash sohasida maqsadli siyosat olib borilmoqda. Aytishga loyiqki, korrupsiyani ildizidan, ya’ni, maktabgacha ta’lim sohasidan boshlab bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu, birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” qonunlarining qabul qilinishi bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, yurtimizda 2022-yil 1-sentabrdan boshlab BMT va xalqaro ekspertlar ko‘magi bilan maktabgacha ta’lim muassasalaridagi bolalarda korrupsiyaga qarshi “halollik immuniteti”ni oshirish, korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturlari ishlab chiqilib, bu o‘quv dasturi respublika barcha muassasalarida joriy qilindi.

Shunday bo‘lsa ham, tizimda xodimlarni ishga olishda, bolalarni navbatsiz qabul qilishda, sifatli va yetarli miqdordagi oziq-ovqat

bilan ta’minlashda, qurilish masalalarida korrupsiyaviy holatlar uchrab turibdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan berilgan ma’lumotga ko‘ra, maktabgacha va maktab ta’limi tizimida korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun sudlanganlar soni 2023-yilda 474 tani tashkil etsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 654 tani tashkil qilgan. Joriy yilda esa mazkur tizimda 220 nafar xodimda manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanib, bartaraf etish choralarlari ko‘rilgan.

Mazkur statistik ma’lumotlardan maktabgacha ta’lim tizimi hali ham korrupsiyadan holi bo‘lgan soha, deb aytolmaymiz. Ayniqsa, tizimning quyidagi sohalarida korrupsiyaviy holatlar ko‘p uchramoqda:

davlat xaridlari va byudjet mablag‘laridan foydalanish;

rahbar va pedagog xodimlarni ishga qabul qilish;

... (qo‘shib yozish kerak).

Masalan, amaliyotda davlat xaridlarini amalga oshirishda shunday holatlar uchraydiki, davlat buyurtmachisi (maktabgacha ta’lim bo‘limi) va kelgusida davlat xaridlarida g‘olib chiqishi rejalashtirilgan tadbirkor oldindan til biriktirib, biror mahsulotni yoki oziq-ovqatni yetkazib berish bo‘yicha kelishuvga erishadi. Natijada, davlat xaridi faqat rasmiyatchilik uchun elektron shaklda o‘tkaziladi. Bunda davlat buyurtmachisi (uning vakili yoki xarid komissiyasi a’zosi) tadbirkor bilan oldindan rejalashtirib, uning xarid jarayonida g‘olib bo‘lishiga ko‘maklashadi. Masalan, korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan aniqlangan holatga ko‘ra, birgina Angor tumani maktabgacha ta’lim bo‘limi tomonidan 1.3 milliard so‘mlik loyiha tadbirkorga hech qanday tenderlarsiz topshirilgan.

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida shuningdek shu kabi holatlar davom etsa, yosh avlodning sifatli ta’lim olishi, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning oziq-ovqatdan zaharlanish holatlarining ko‘payishi, maktabgacha ta’lim muassasalari binolarining sifatsiz ta’mirlanishi kabi muammolar yuzaga keladi.

Bu kabi holatlarni oldini olishda Yaponiya davlatida debarg tizimi joriy qilingan. Debarg — bu davlat xaridlari sohasidagi korrupsiya va noqonuniy harakatlarga qarshi qaratilgan sanktsiyalar. Ushbu sanktsiyalar doirasida davlat xaridini amalga oshiruvchi tashkilot bunday sub’ektlarning davlat xaridlari bo‘yicha shartnomalar tuzish huquqini belgilangan muddatga vaqtincha to‘xtatadi. Agar mazkur sanktsiya bir buyurtmachi tomonidan qo‘llanilsa, u bu haqda boshqa buyurtmachilarga xabar berishi va ular ham “debarg” chorasini qo‘llay oladi. Bu tizim orqali, o‘z faoliyatini noqonuniy yo‘llar bilan amalga oshirayotgan tadbirkorlarning daromad olishi, faoliyatiga jiddiy zarar yetkazilib, ularni bu kabi xatti-harakatlarni amalga oshirishdan tiyadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, korrupsiya va poraxo’rlik jamiyat barqarorligining muhim asosi bo‘lgan adolatning yo‘qolishiga olib keladi, buning natijasida esa, davlatimizning asosiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ustuni bo‘lgan ta’lim tizimining yemirilishiga sabab bo‘ladi. Mamlakatimiz mustahkamligi, xalqimiz farovonligi, yurtning rivoji va gullab yashnashini, obod bo‘lishini istagan har bir fuqaro pora olish va berish illatidan halos bo‘lishi, bir so‘z bilan aytganda “halollik vaksinasi” bilan emlanishi kerak. Yuqorida sanab o‘tilgan holatlarning to‘liq bartarf etilishi, doimiy ravishda berilayotgan ko‘rsatmalarni har bir xodim ko‘r-ko’rona emas, balki sidqidildan bajarsa, qo‘yilgan barcha maqsad va vazifalarga o‘z vaqtida erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил.: [Электрон манба].URL: https://president.uz/uz/lists/view/4057.

2. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “Коррупцияга қарши Конвенцияси” // [Электрон манба]. URL: https://lex.uz/docs/1461329.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги 419-сонли Қонуни, 2017 йил; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси // [Электрон манба]. URL: https://lex.uz/docs/3088008.

4. Мишин Г.К. О теоретической разработке проблемы коррупции / Под ред. В.В. Лунеева // Коррупция: политические, экономические, организационные и правовые проблемы. – М.: Юрист, 2001. С.

5. Давлат харидлари соҳасида коррупцияни олдини олиш. Тошкент - 2025. Рисола.